

XO‘JAOBOD TUMANINING GEOGRAFIK O‘RNI VA TABIIY XUSUSIYATLARI

Xamraliyev Asadbek Ashurali o‘g‘li

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xo‘jaobod tumanining geografik o‘rni, va uning mehnat resurslari, Xo‘jaobod tumanining tabiiy geografiyasi, sanoati, sanoat korxonalari va iqtisodiy geografik xususiyatlari, hamda demografiyasi haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tabiiy xususiyatlari, ichki migratsiya, tashqi migratsiya, demografiya.

Аннотация. В статье подробно описывается географическое положение Ходжаабадского района, его трудовые ресурсы, природная география, промышленность, промышленные предприятия и экономико-географические особенности Ходжаабадского района, а также его демография.

Ключевые слова: природные особенности, внутренняя миграция, внешняя миграция, демография.

Annotation. This article describes in detail the geographical location of Khojaabad district, its labor resources, natural geography, industry, industrial enterprises and economic geographical features of Khojaabad district, as well as demographics.

Key words: natural features, internal migration, external migration, demography.

Xo‘jaobod tumani 1962-yil 24-sentabrda tashkil qilingan. Xo‘jaobod tumani tarkibidan Jalaquduq tumani (1973-yil), Buloqboshi tumani (1992-yil) ajralib chiqqan. Tumanning shimoli sharqida Jalaquduq tumani, shimoli g‘arbda Andijon tumani, g‘arbda Buloqboshi tumani va sharq, janub, janubiy-g‘arbda Qirg‘iziston davlati joylashgan. Maydoni 228.9 km kv. Doimiy aholisi soni 122.3 (2025 yil aprel oyi holati) ming kishi. Shundan 60.1 ming kishi ayollar va 62.2 mingtasi erkaklarni tashkil etadi. Tumanda 1 ta shahar, 5 ta shaharcha va 39 ta mahalla fuqaro yig‘inlari mavjud.

Xo‘jaobod tuman hududi Farg‘ona vodiysining janubi-shariy qismida joylashgan. Janubida Pomir Oloy tizmalarining Chilustun va Qirtoshtog‘ tog‘lari joylashgan. Shimoli-g‘arbiy qismi adirlardan iborat. Qolgan kismi pasttekislik. Foydali qazilmalardan neft va gaz, ohaktosh, shag‘al, qurilish uchun sement va pardozbop toshlar, qum-shagal, chaqiq toshlar sheben bor. Va yana Xo‘jaobodda Yer Osti Gazni saqlash inshooti ham mavjud.

Xo‘jaobod tumaning iqlimi keskin kontinental. Yillik o‘rtacha temperatura 13°C. ni tashkil etadi. Iyul oyining o‘rtacha harorati 26,7°, eng yuqori harorati 45° darajada issiq. Yanvar oyining o‘rtacha harorati — 3,5°, eng past harorati esa – 26°. Yiliga 300-330 mm yog‘in yog‘adi.

Ekinzorlar asosan Shahrixonsoy, Oqburasoy, Aravonsoy, Savoy va Janubiy Farg‘ona kanallaridan sug‘oriladi. 5 ta suv chiqarish inshooti bor.

Xo‘jaobod tumanining tuproqlari asosan, madaniy voha tuprog‘i bo‘lib, aholisi qadimdan dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Tumanning hududlarida asosan o‘tloqli saz alluvial, tipik bo‘z tuproqlar tarqalgan bo‘lib, ochilib qolgan tub jinslar va qum shagal yotqiziqlar tarqalgan. Tipik bo‘z tuproqning ustki qatlamida chirindi miqdori 1,5% dan 2,5% gacha, ayrim joylarda 2,88% gacha yetadi. Undan tashqari gumus saqllovchi qatlam qalin bo‘lib, 60-70 sm ni tashkil qilsa, ba‘zi joylarda 90-100 sm chuqurlikda ham uchraydi.

Xo‘jaobod tumanining hayvonot olamiga nazar tashlasak, chiyabo‘ri, tulki, yovvoyi mushuk; qushlardan burgut, sor, qiyg‘ir, yovvoyi kabutar, ukki; kemiruvchilardan yumronqoziq, kalamush, dala sichqoni, oqsichqon, yovvoyi quyon; sudralib yuruvchilardan ilon, kaltakesak kabilar yashasa kemiruvchilardan kalamush, sichqon; qushlardan musicha, chumchuq, qaldirg‘ochlar yashaydi.

Adirda efemer va efemeroid o‘simliklaridan rang, qo‘ng‘irbosh, yaltirbosh, no‘xotak, chuchmoma, lolaqizg‘aldoq, boychechak, gulxayri, qoqi o‘t kabi o‘simliklar qalin o‘sib iyul oyigacha vegetatsiyasini davom ettiradi. Bu o‘simliklardan tashqari yana shuvoq, yovvoyi bug‘doy, yovvoyi arpa, jasmin, mingbosh, achchiq miya, ermon, zubturum, yersovun o‘ssa, adirning yuqori qismida daraxtsimon o‘simliklar uchraydi.

Har bir hududda bo‘lganidek, tumandagi mehnatga yaroqli bo‘lgan aholi xususan mehnat resurslarini ish bilan bandligini ta‘minlash, hududda ishsizlar sonini kamaytirish eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Tumandagi aholi bandligini tahlil etsak, aholiga yaratilayotgan yangi ish o‘rinlariga e‘tibor berishimiz kerak. Agar bir necha yillar ichida tashkil etilayotgan yangi ish o‘rinlarida nazar solsak bunda, sanoatda tashkil etilayotgan o‘rinlar boshqa sohalardan yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin.

Qishloq xo‘jaligi sohasi Xo‘jaobod tumanning rivojlangan iqtisodiy tarmog‘i hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi avvalo oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondiruvchi asosiy baza bu sohada don, o‘simlik yog‘i, go‘sht, sut mahsulotlari, tuxum, parranda go‘shtlari, baliq, asal, kartoshka, sabzavot, poliz, rezavor, meva, uzum, chorva uchun yem-hashak, ozuqa, farmotsevtika, farmokologiya sohalari uchun dorivor o‘simliklar yetishtirish, o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish kabi ko‘plab sohalarni o‘zini tarkibida birlashtiradi.

Xo‘jaobod tumani aholisi yildan yilga o‘sib borayotgan demografik holatda. Aytilganidek 2025 yil holatiga ko‘ra Xo‘jaobod tumani aholisi 122.3 ming kishini tashkil etadi. Shundan 60.1 ming kishi ayollar va 62.2 mingtasi erkaklarni tashkil etadi. Bu

ko'rsatkichlardan shuni bilib olish mumkinki, Xo'jaobod tumanida erkaklar soni ayollar sonidan biroz miqdorda ko'proq.

Xo'jaobod tumaning milliy tarkibiga keladigan bo'lsak tumanda o'zbeklar salmog'I eng yuqori 86,9%. Keyingi Orinda qirg'izlar 12.6%. va yana tumanda ruslar, tatarlar, tojiklar, turkman va boshqa millatlar ham istiqomat qiladi.

Mamlakat (hudud) aholi soni migratsiya hisobiga ham o'zgaradi. Migratsiya so'zi lotincha bo'lib, ko'chish ma'nosini bildiradi. Migratsiya ikki xil ya'ni mamlakatga (hududga) aholining ko'chib kelishi (immigratsiya) yoki mamlakatdan (hududdan) aholining ko'chib ketishi (emmigratsiya) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Aholining bir hududdan ikkinchi hududga yoppasiga ko'chishi turli sabablarga asosan bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xo'jaobod tumani Pasporti 2023-2024.
2. Mamajonov M., Aliyev H. Andijon geografiyasi A. "Hayot nashri-2020".
3. Qayumov A., Qodirov R. Qishloq xo'jaligi geografiyasi va iqtisodiyoti. Andijon. 2010.
4. Qayumov A., Yaqubov O', Abdullayev A. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Toshkent 2011.
5. Makhmurovna, S. B., & Dahiya, R. Analysis of Italian and Russian Proverbs Reflecting the Concept of Time.
6. Nizomiddinova, S. N., & Maxmurovna, S. B. (2025). Lexical and semantic analysis of antonymic correlated Italian proverbs on friendship and love. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 3(3), 21-25.
7. Rakhmatov, O., Rakhmatov, F., Kurbanov, E., Rakhmatullaev, R., Kasimov, A., & Musayeva, N. (2023). The methodological foundations of the thermal efficiency in a convective drying unit of the chamber type. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 390, p. 04041). EDP Sciences.
8. Obidov, A., Nuriev, K., Allanazarov, M., Kurbonov, E., & Khudoyberdiev, R. (2021). Parameters of tillage working bodies. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 284, p. 02012). EDP Sciences.
9. Raxmatov, F. O., Raxmatov, O., Nuriev, K. K., & Nuriev, M. K. (2021, October). Combined dryer with high efficiency for drying high-moist agricultural products. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 868, No. 1, p. 012076). IOP Publishing.
10. Юсупалиходжаева, С., & Шомуродова, Г. (2022). Сочетанные воспалительно-деструктивные поражение пародонта: этиология, патогенез, клиника, диагностика. *Стоматология*, 1(1), 75-79.